

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
DEKABR
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
14-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-14**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-14**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 21 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Karimova Kamila Ikramovna	
CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O‘QITISH METODLARI.....	7
2. Qodirova Robiya	
“MEN TIRIKMAN SO‘RA”.....	9
3. Bozorbayeva Barno Alisherovna	
TASVIRIY SAN‘AT TO‘GARAKLARIDA O‘QUVCHILAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASH.....	11
4. Klicheva Dinora Batirovna	
UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN‘AT DARSLARINING O‘RNI.....	13
5. Shamuratova Yulduzxon Baxramovna	
O‘ZBEKISTONDA CHIZMACHILIK FANINING RIVOJLANISH TARIXI.....	14
6. Boymurotova Shahlo Egamberdiyevna	
TASVIRIY SAN‘AT FANINING BOSHQA FANLAR BILAN UZVIY BOG‘LANISHI.....	16
7. Madraximova Vazira Muxtarovna	
TASVIRIY AMALIY DARSLARDA IJODIY QOBILIYATLARNI O‘STIRISH.....	18
8. Rejapova Difuza Rovshonovna	
ESTETIK TARBIYADA XALQ AMALIY BEZAK SAN‘ATINING O‘RNI.....	19



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O‘QITISH METODLARI

Karimova Kamila Ikramovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
17-son maktabining Tasviriy san’at va
chizmachilik fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Har qanday fanni O‘qitish metodikasining asoslari uchta asosiy tarkibiy qismlar: konsepsiya, ta’limning metodik tizimi va ular ta’siri natijalarini baholashdan iborat. 8 va 9-sinflarda chizmachilik fanini O‘qitish O‘quvchilarning yosh xususiyatlari hamda hayotiy va mehnat tajribalaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Kalit so‘zlar. Konsepsiya, ta’limning metodik tizimi, ko‘nikma, malaka, amaliy ishlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari.

O‘quvchilar 8-9-sinfga o‘tganlarida bilim olishga ongli ravishda, ma’lum maqsad bilan intiladilar. Shuning uchun O‘qituvchi o‘z oldidagi vazifalami tahlil qilib, har bir darsning eng optimal tuzilishini o‘ylab, dars maqsadlariga to‘liq javob beradigan tuzilishni topishga harakat qilishi kerak. Navbatdagi darsning muvaffaqiyati ko‘pincha oldin o‘tilgan darslar qatorida uning qanday o‘rin tutishiga, o‘quvchilar egallagan bilim va amaliy ko‘nikmalariga hamda ularga

tushuntiriladigan bilimning hajmi va mazmuniga bog‘liq. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning dunyoqarashlari darajasi, darslik yoki ilmiy-ommabop va texnik adabiyotlardan mustaqil o‘qib o‘rganish imkoniyatlariga tayanadi. Pedagogikada darslarning har xil turlari va o‘qituvchining bilimlarni bayon qilishining turli shakllari tahlil qilib berilgan. Masalan, darslar quyidagi turlarga ajratilgan: • yangi materialni o‘rganish darsi; • bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash

darsi; • takrorlash-umumlashtirish darsi; • aralash yoki kombinatsiyalashgan dars. Chizmachilik darslari uchun eng keng tarqalib, ommalashgan dars turi - aralash yoki kombinatsiyalashgan darsdir. Bunda o‘qituvchining mavzuni bayon qilishi bilan bir qatorda o‘quvchilar tomonidan amaliy ishlarni bajarilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu amaliy ishlar o‘quvchilarga o‘quv adabiyotlaridan foydalanib olingan bilimlarni mustahkamlashga hamda uy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha o‘quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalami ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bunday ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Innovatsiya - inglizcha so‘z bo‘lib, yangilik kiritish, yangilik ma’nolarini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘quvchi va pedagog faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo‘lib fikrlashga asoslanadi

va pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Chizmachilik o‘qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o‘zining kasbiy faoliyatida o‘rinli foydalana olish malakalariga ega bo‘lishlik talab qilinadi. Umum ta’lim maktablaridagi chizmachilik darslari o‘zining xususiyatlariga ko‘ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O‘rganilgan ma’lumotlarning asosiy qismlari bo‘yicha o‘quvchilar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida O‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan individual ishlashiga to‘g‘ri keladi.

Amalda o‘quvchi chizmachilik fanini O‘qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus



jihozlangan chizmachilik kabinetida o'rganadi. Darsda o'qituvchining nazariy ma'lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo'yicha

O'quvchilar ish daftarlarida grafik ish bajaradilar. O'qituvchi har o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi va uni o'quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin O'quvchilar bilan individual shug'ullanish vaqti chegaralangan. O'qituvchi har bir o'quvchining ishini kuzatish va ularga chizma bajarishning ratsional yo'llarini ko'rsatish, mavzuning qiyin joylarini tushuntirish hamda bajarilgan ishlarni tekshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun o'qituvchining darsni tashkil qilishiga ko'p narsa bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. 4-maxsus son «Chizmachilik». - T.: 1999
2. Ro'ziyev E. F. Chizmachilik o'qitish metodikasi. - Urganch: UrDU, 2001
3. www.ziynet.uz



**“MEN TIRIKMAN SO'RA”
JONKUYAR NAQQOSH QOBIL QOSIMOV. BOBOMNI HOTIRLAB.**

Qodirova Robiya

Kamoliddin Behzod nomidagi
MRDI dastgohli rangtasvir yo'nalishi
2-bosqich talabasi

ANNATATSIYA: Naqqosh Qobil Qosimov to'g'risida ma'lumotlar, yaratgan asarlari, ijodlari, umr yo'llari to'g'risida to'xtaliniladi.

Kalit so'zlar: Haqqoshlik, plastika, ijod, umr yo'li, mahalla faoli.

Qobil Qosimov 1946-yil 23-may kuni Toshkent shahar Muqimiy ko'chasida 15 –uyda tavallud topdi. 8-sinfni tugatib, benkov nomidagi Respublika rassomlik bilib yurtiga kirib, uni 1964-yil imtiyozli tugatgan. Ustozlarining o'gitiga amal qilib, kechki maktabda 11-sinfni tugatgan. 1964-yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutiga kirib, 1969-yilda Fizika Matematika fakultetining to'la kursini chizmachilik rasm ixtisosligi bo'yicha tamom qildi. Davlat imtixon komissiyasining 1969-yil 1-iyul qarori bilan Qosimov Qobilga o'rta maktab chizmachilik rasm o'qituvchisi kvalifikatsiyasi berildi. Xarbiy билет №DJ №167477. 28- dekabr 1969-yil harbiy qasamyod qabul qildi va 1-razryadli zapasdagi ml. Leytenant Moyyor tomonidan harbiy unvon berildi. 1969-yildan 1970-yil 28-fevralda SSSR harbiy kuchlari qo'shinida harbiy xizmatni o'tab qaytdi. 10.1969-yil strelok P. 1970. 1971-yil 21-avgust kuni uylandi. Leytenant . K. Turkvo. №70 16.03.1981-yil

1982-yil Toshkent “o'qituvchi” nashriyotida Q.Qosimov “Naqqoshlik” kitobi chop etildi. Kitob badiiy naqsh to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi masalalarini to'garak rahbarlari uchun qo'llanma sifatida O'zbekiston Maorif ministrligining o'quv metodika kabineti tomoni tomonidan nashrga tavsiya etildi. 8000 nusxada.

1983-yil 9-noyabr Moskva davlati pedagogika instituti 11 protokol bilan Qosimov Qobilga “ Pedagogika fanlari nomzodi” dgan ilmiy unvon taqdim qilindi. PD № 006489 raqamli fan nomzodi diplom 30- may 1984-yili berildi.

1985-yil rasm chizmachilik fakultetida “Xalq amaliy san'ati kafedrası” ning ochilishida jonbozlik ko'rsatgan. 1998-yilgacha shu kafedrada faoliyat ko'rsatgan. Termiz shahridagi Mutaxassislik maydonidagi muzey binosida naqsh va ganchkorlik ishlari bo'yicha shogirdlari bilan bezak ishlarini bajargan. Ko'plab xonadonlarda bezash ishlari bo'yicha betakror naqsh namunalarini qoldirgan. Pedagogika instituti yo'laklarini bezashda , A. Navoiy nomidagi muzeyni tashkil qilishda faollik ko'rsatgan. 1989-yil Karim Maxmudov tomonidan yozilgan “Mehmonnoma” kitobidagi naqshlarni chizib bergan. SSSR XALQ TA'LIMI DAVLAT QO'MITASI QARORI BILAN 1-dekabr 1989-yil 1335/d raqami ostida Qosimov Qobilga Dotsent ilmiy unvoni resunok kafedrası tomonidan taqdim etildi. Attestat Dotsenta DT 017715Moskva. 1990-yil Toshkent O'qituvchi nashriyoti “NAQQOSHLIK” xalq naqqoshligi to'garagi o'zbek va rus tillarida kitob chiqdi. 12000 nusxada. 1993-yil Toshkent nashriyoti O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi Nizomi nomli Toshkent davlat pedagogika institute Alisher Navoiy nomli nafis san'at maktabi “Qo'qonlik Xalq ustasi naqqosh Saidahmad Mahmudov” (Usta naqqosh ijodining ko'rgazmasi munosabati bilan) kitobcha chiqarildi. 100 nusxada.

2001-yil “Usto” birlashmasi jamoasi nomidan 55 yosh munosabati bilan tabrik hatida shunday so'zlar bor: “Siz o'zingizning tinimsiz mehnatingiz bilan bir necha yillardan beri san'at olamining jonkuyarlaridan bo'lib keldingiz. Yosh ijodkorlarga berayotgan beminnat maslahatingiz va yordamlaringiz sizning o'zsohangizning yetuk olimlaridan biri ekanligingiz dalolat beradi. Biz hamisha shunday inson bilan yonma-yon mehnat ilayotganimizdan fahrlanamiz. Shu muborak kunda umringiz sahifalari yana uzoq yillar davomida mazmunli , olijanob ishlar bilan to'lib borishiga tilakdoshmiz. Hamisha sog'-salomat bo'ling, sizga uzoq umr, baxt saodat tilab jamoangiz a'zolari, deya , 5 kishi imzo chekkan.

U faoliyat yuritgan davrda xalq amaliy san'at kafedrası yuksak yutuqlarga erishgan. Ishi davomida intizomli, vijdonli, o'z ishining ustasi, mohir pedagog, ilmga chanqoq inson sifatida tanildi. Doimiy ilmiy ish olib bordi. Ma'ruza va amaliy ishlarda eng avangard, go'zal pedagogik va metodik uslublarni qo'llagan holda darslarni ko'rgazamli, yuksak saviyalarda olib



bordi. Shogirdlari bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalash ularning qalbida go'zallikka oshnolik tuyg'ularini tarbiyalashda ulkan namunalar ko'rsatdi. Talabalarining diplom ishlarini yuksak saviyada, go'zallikning btakror namunasi sifatida ijodning ilohiy ilhom bilan yo'g'rilgan tarzda olib borishlariga erishdi. Talabalar bu ishlarni bajarish jarayonida ko'p narsalarni o'rgandilar. Talablarning bu ishlari antiqa, betakrorligi bilan insondagi estetik zavqni jo'sh urdiradigan buyumlar bo'laredi. 8qirralik, 6 qirralik, 5,4,3 qirralik stol stullarni yasashdan tortib, tayyor buyum holiga kelguncha bo'ladigan jarayon talabaning o'ziga ishonchini, kelajak orzu maqsadlariga ham tasir ko'rsatishi bilan ajralib turar va albatta ng yuqori baholarga loyiq ko'rilar edi.

Sabr, halollik poklik, ishga vijdonan yondoshish kabi sifatarni shogirdlar qalbiga singdirishda tengsiz inson sifatida hamon shogirdlari qalbida, yodida yashamoqda. O'z pedagogik faoliyatiga butun ma'suliyatni his etgan holda mehr va e'tabor bilan yondashish uning shiori edi. 32 dan ortiq ilmiy ishlar nashr qildirgan, bular: metodik qo'llanmalar, tavsiyalar chop etilgan bo'lib pedagogika institutlari va bilim yurtlarining o'qituvchilari, to'g'arak rahbarlari uchun mo'ljallangandir. “Yuniy xudojnik”, “Qori Niyoziy”, “Moskva”, “Guliston”, “ O'zbekiston san'ati”, “Gulhan jurnallarida”, “Qori Niyoziy” nomli “O'zbekiston ilmiy tekshirish institutining va Toshkent nizomiy nomli Pedagogika institutining ilmiy to'plamlarida ilmiy ishlari nashr qilingan. Ular qiziqarli, tushunarli, namunali ishlar sifatida hamkasblari tomonidan doimiy ravishda e'tirof etib kelingandir. O'quv diafilmlari, respublika gazetalarida o'z maqolalari va naqshlari bilan bezash ishlarida ishtirok etib, halqimizning ma'naviyatini o'stirishga bebaxo hissasini qo'shgan. Shogirdlari qalbida ijodga, tafakkurga ishtiyoq, tanlagan kasbiga hurmat va yuksak e'tiborni shakillantira olgan edi. Respublikamizning maktab, kollej, institutlarida hamon faoliyat yuritib kelayotgan shogirdlar vatanimizga xizmat qilmoqdalar.

Q. Qosimov ulkan ijodiy ishlari bilan kitob bezash, jurnal bezash, mamuriy binolar va shahsiy uylarni bezash bilan shug'ullangan. Respublikada tashkil etiladigan barcha pedagogic o'quv seminarlarida qiziqarli, qalblarga o't yoquvchi ma'ruzalar bilan chiqqan. Ummum ittifoq, Moskva, Leningrad, Kiyev, Karachayevo Cherkess, Boku, Rigada o'tgan va respublikailmiy amaliy konferensiyalarining faol ishtirokchisi bo'lgan.

1997-yil Respublika «Hunarmand uyushmasi» tashkil etilganda, “Musavvir” ilmiy ishlab chiqarish markazida rahbar o'rinbosari sifatida ish olib bordi va yoqolib borayotgan hunar turlarini tiklash ishlarining boshida ko'plab usta va ustazodalar bilan yelkama-yelka turdi. 2001-yil birinchi infarkt hurujini boshdan kechirdi. Ammo 2012-yil 14-may kuni yangi infarkt huruji uni oramizdan olib ketmaguncha bir soniya harakatdan, ijoddan, odamlarga yaxshilik qilishdan to'xtamadi. Insonlarga san'at yo'lini, haqiqiy insonning hayot yo'li qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatib, o'zi namuna bo'lib yashadi. 66 yoshda bu olamni tark etib, oxiratga rixlat etgan bu aziz inson O'zbek Xalq Amaliy San'atining zaxmatkash fidoyisi sifatida ko'plab insonlar hotirasida mangu qoldi. Doim barcha narsaga birdek ulgurishga harakat qilgan bu inson doim men tirik ekanman mendan sora degan shior bilan yashaganlar. Doim kuzatib, e'tiborli bo'lib, jon kuydurib umr o'tqazganlar.

Ustozlarini ulug'lagan, tan olgan shogirdgina el aro taniladi, halq yodida, ardog'ida bo'ladi. O'zim usta bo'ldim degan odam esa aro yo'llarda qolib, unutilib xalq yodidan ko'tarilib ketadi. Eli ham uni unutadi. O'tmishni unutib, bugun bilan yashagan bugunning o'zida qolib, unutiladi. O'zgalarning o'z rivojida hissasini, hizmatini unutgan, yuzaga chiqarmay berkitgan, o'zim bo'ldim, o'z mehnatim bilan erishdim deganlar xor bo'ladi. Bu hayot sabog'idir. Qobil Qosimov oilaparvar, mehribon umr yo'ldosh, mehribon ota, jonkuyar oilaboshi edilar. Ul zot mangu qalbimizda yashashiga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. "Naqqoshlik" Q. Qosimov
2. "Naqqoshlik xalq naqqoshligi to'garagi" Q. QOSIMOV.



TASVIRIY SAN'AT TO'GARAKLARIDA O'QUVCHILAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASH

Bozorbayeva Barno Alisherovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
18-son maktabining Tasviriy san'at va
chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada individual ishlashning eng asosiy turlaridan biri — sinfdan tashqarivaqtda o'qituvchining bergan topshirig'iga asosan yoki o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashidavomida naturadan yoki qiziqqan mavzulari asosida kompozitsiya ishlashlari haqidagi fikrlaryoritilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, sinfdan tashqari ishlar, haykaltaroshlik, rassomlik, o'ymakorlikka, naqqoshlik.

Tasviriy san'at to'garagi mashg'ulotlarida har bir o'quvchi bilan individual ishlash judakatta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Individual ishlash prinsipi ta'lim-tarbiya ishlarida, shuningdek, mustaqil mashg'ulotlarda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishdan iboratdir. To'garak a'zolari bilan individual ishlashda to'garak rahbari, ya'ni tasviriy san'at o'qituvchisining roli benihoya katta. Birinchidan, har bir o'quvchining rassomlik, haykaltaroshlik kasb-hunarini tez va puxta egallashi, eng avvalo, o'qituvchi bilan qanchalik ko'p va diqqat bilan individual ishlashigabog'liq. Ikkinchidan, tasviriy san'at o'qituvchisining bevosita ta'siri va rahbarligi natijasida bu kasbga ixlos qo'ygan o'quvchilarda rassomga xos badiiy estetik sifatlar vujudga keladi va uyg'unlashadi. O'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan ehtiyojlari, istak va intilishlarini bilib olish uchun alphi so'rab chiqish yoki suhbatlashish kerak bo'ladi. Bu ishni yaxshisi o'quv yili boshida o'tkazgan ma'qul. Olingan ma'lumotlar o'quvchilar bilan ularning moyilligi va imkoniyatlarini hisobga olib, alohida ish olib borishga imkon beradi.

Individual ishlashning eng asosiy turlaridan biri — sinfdan tashqari vaqtda o'qituvchining bergan topshirig'iga asosan yoki o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashi davomida naturadan yoki qiziqqan mavzulari asosida kompozitsiya ishlashidir. Bundan tashqari, chet el, rus va milliy buyuk rassomlarning ijodi va hayoti, badiiy asarlarini o'qish-o'rganish, har bir asar mazmunini idrok etish, o'z o'rtoqlari orasida asar mazmuni haqida fikr-mulohaza yuritish, tahlil yozish juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Sinfdan tashqari o'quvchilar bilan individual ishlash vaqtida o'qituvchi yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, milliy uyg'unish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyagay etkazishda va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan N. Qo'ziyevning «Xalq artisti Yu. Rajabiy», M. Nabiyevning «Beruniy portreti», «Amir Temur portreti», Z. Inog'omovning «Choyga», G'. Abdurahmanovning «Paxtakor. Stadion», «To'y», R. Soatovning «Navro'z», kabi ajoyib badiiy asarlarini o'qishni tavsiya etish, asar mazmunini to'g'ri tushunishlari uchun suhbat va maslahatlar berish yo'li bilan yordam berib turish, vaqti-vaqti bilan maktab yoki boshqa joylarda yosh san'atshunoslar anjumanini yoki yosh rassomlar ko'riklarini o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Qalam tasvir mashg'ulotlarida o'quvchilar odam boshini turli ko'rinishda, yarim yalang'och inson qomatini qalamda mukammal tasvirlaydilar. Kishilarning yig'ilib turgani yoki ko'chadaketayotgani, bozorda, vokzal atrofi, bokatlarda turgan holatini xomaki chizib mashq qiladilar. Qattiq materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar erkin mavzuda etud va kompozitsiyalarni daraxt tanasi, yumshoq tosh yoki gipsdan yasaydilar. Bezakli-amaliy san'at to'garagida bolalarga naqqoshlik, kulolchilik, ganch va yog'och o'ymakorligi, misgarlik, badiiy kashtachilik kabi hunarlar o'rgatiladi. Bunday to'garaklarga maxsus ma'lumotga ega bo'lgan o'qituvchilar rahbarlik qiladi. To'garaklarda bolalarga o'zbek, rus, xorijiy bezak san'ati elementlari va ularni amalda qo'llash yo'llari o'rgatiladi; ular xalqamaliy bezak san'atidan ganch, suyak, yog'och o'ymakorligi, naqsh chizish, me'morlik asarlarini amunalari bilan tanishtirib turiladi. Shuningdek, to'garak a'zolarida stur hajmida qalam tasvir, rang tasvir bilan shug'ullanadilar, o'qituvchi tasviriy san'at asarlari bilan ham tanishtirib boradi. Kasb-hunarga doir mashg'ulotlarda o'quvchilar naqsh chizadilar, barg va gullardan naqshlartuzadilar, o'simlik, hayvon va boshqa narsalarning tasviriga naqsh berib ishlaydilar. To'garak a'zolarining bajargan uy ishlarini muntazam kuzatib borish sinfdan



tashqari ishlarning muhim shartlaridan biridir. O'quvchilarning tasviriy san'at sohasida uyda mustaqil ishlagan rasmlari va kompozitsiyalarini ko'zdan kechirib va nazorat qilib turish, tegishli maslahatlar berish ularning to'garakdagi faoliyatlariga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Tolipov. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. T., 1995.
2. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T., «Fan», 2004.
3. O. Xudoyorova. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan. T., 1993.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING O'RNI

Klicheva Dinora Batirovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
18-son maktabining Tasviriy san'at va
chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar borliqni va san'atni estetik idrok qilish yo'llarini o'zlashtiradi. Bu fan orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, ko'rish xotirasi, ijodiy tafakkuri, badiiy didi, estetik hissiyotlari rivojlanib borishi haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, me'morchilik, estetik idrok, interfaol metod va texnologiyalar, sxemalar, diagrammalar, eskizlar, estetik tarbiya.

Tasviriy san'atdagi ta'limiy va tarbiyaviy jarayon o'quvchilarda rasm chizish, me'morchilik ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda atrof-muhitdagi go'zalliklarni estetik idrok etish, uni tasviriy vositalar asosida aks ettirish bo'yicha ham nazariy bilim va malakalarni rivojlantiradi. Shuni aytib o'tish lozimki, bu maqsadlarga to'laqonli erishishda o'qituvchining darsga yondashuvi va mahorati muhim o'rin egallaydi. Chunki tasviriy faoliyat jarayonida shakllanadigan bilim, malaka va ko'nikmalar asosan dars davomida amalga oshiriladi. Dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metod va texnologiyalarni tanlashda fanning xususiyatini hisobga olish maqsadga muvofiq. O'qitish jarayonining samarali va natijali bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan interfaol uslublar va o'qitish texnologiyalari hozirgi kunda respublikamizning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida keng miqyosda qo'llanilib, ijobiy natijalar olinmoqda. Xususan, o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida “Zinama-zina”, “FSMU”, “Tushunchalar tahlili”; yangi mavzuni tushuntirishda “Charxpalak”,

“Tarmoqlash”, “SAN” texnologiyasi; yangi mavzuni mustahkamlash va unga oid mustaqil ish berilganda “Rezyume”, “Tashviqot guruhi”, “SAN” texnologiyasi; darsni yakunlash bosqichida “Yelpig'ich” texnologiyasidan foydalanish

maqsadga muvofiq. Tasviriy san'at darslarini qiziqarli, mazmunli olib borish uchun o'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir darsda texnika vositalari, multimedia vositalari, slaydlar va ko'rgazmali qurollardan o'z o'rnida foydalanishi kerak. Dars jarayonida faqatgina qo'llanmada ko'rsatilgan materiallar bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha adabiyotlar, internetdan olingan ma'lumotlar va fan yangiliklari, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalaridan keng foydalanish

tavsiya etiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir. Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo'yadi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi. Tasviriy san'at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada, u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil 29 avgust
2. I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». T., 1994
3. Abdirasilov S., N. Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, 2005.



О‘ЗБЕКИСТОНДА CHIZMACHILIK FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Shamuratova Yulduzxon Baxramovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
17-son maktabining Tasviriy san’at va
chizmachilik fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Chizma geometriya va chizmachilik fani boshqa fanlar singari insonning mehnat faoliyati natijasida paydo bo’gan. IX-XI asrlarda Markaziy Osiyo hududida yashab ijod qilgan allomalarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Farobiy, Ahmad al-Farg’oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning geometriya va astronomiya asarlarida proyektsiyalash haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Markaziy Osiyo, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Farobiy, Ahmad al-Farg’oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, proyektsiyalash, Chizma geometriya.

Ma’lumki, 1918 yilda O’rta Osiyo va Qozog’istondagi birinchi tashkil qilingan Oliy o’quv yurti Turkiston Xalq Universiteti (hozirgi O’zbekiston milliy universiteti) hisoblanadi. Keyinchalik 1920 yilda bu universitet Turkiston Davlat universiteti deb nomlanib, o’quv jarayonida bir necha yangi mutaxassislik yo’nalishlari shu jumladan texnika va gidrotexnik inshootlar, qurilish yo’nalishlari tashkil qilindi. Natijada texnika fakulteti talabalariga fundamental tabiiy fanlar va

umum injenerlik fanlari ham o’qitila boshlandi. Universitetning texnika va qurilish inshootlari yo’nalishlarida o’sha vaqtdan boshlab mamlakatimiz oliy o’quv yurtlarida hozirgi vaqtda o’qitiladigan «Chizma geometriya» va «Chizmachilik» fanlari o’qitila boshlangan deb hisoblash mumkin. Dastlab chizma geometriya va chizmachilik fanlari birgalikda o’qitilib, o’quv jarayoni chizmalarni chizish va ularni o’qiy olishga qaratilgan. 1928 yilda Turkiston Davlat Universiteti tarkibidagi injener-meliorativ fakulteti asosida O’rta Osiyo paxtachilik irrigatsiya, politexnika instituti tashkil qilindi. Shuningdek 1930-1934 yillarda Universitet tarkibidan bir necha Oliy texnika o’quv yurtlari ajralib chiqib, bu institutlarda «Chizma geometriya va chizmachilik» kafedralari tashkil qilindi va umummuhandislik fanlari qatorida grafika fanlari ham to’liq o’qitila boshlandi. Dastlabki yillarda fanni o’qitish uchun uning o’qitish metodikasiga, talabalar bajaradigan chizmalar to’plamlarini tuzish va yosh o’qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish kabi ishlarga katta e’tibor berilgan. 1926-1946 yillarda Toshkent Oliy texnika o’quv yurtlarida sobiq Sovet davrining mashhur geometr olimlaridan S.M.Kolotov, M.Ya.Gromov va V.O.Gordon, kutubxonasi E.I.Godiklar chizma geometriya va chizmachilikdan dars berish bilan bir qatorda o’zlarini ba’zi bir fundamental ilmiy ishlarini Toshkentda olib borganlar. Ular pedagog o’qituvchilarni bilim malakalarini oshirishga, kafedralarning ilmiy metodik faoliyatini yaxshilashga katta xissa qo’shganl professorlar hisoblanadi. 1926-1944 yillarda professor S.M.Kolotov (1885-1965) O’zbekistonda yashab turli inshootlarni loyihalashda, qurilish va sanoatni qayta tiklash ishlarida faol qatnashib, O’rta Osiyo Industrial Instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti)da chizma geometriya va arxitektura loyihalash fanlaridan mashg’ulotlar olib borgan. 1933 yilda u «Chizma geometriya kursi» darsligini yozib «Yordamchi proektsiyalash» usulini nazariy tomondan asoslab, usulni pozitsion va metrik masalalarni echishdagi qulay tadbirini ko’rsatgan. Shu yillarda soyalar yasash, perspektiv tasvirlar yasashga ham bir necha ilmiy ishlar yaratgan. 1939 yilda unga O’rta Osiyo industrial qurilish instituti ilmiy kengash qaroriga asosan sobiq SSSR Oliy attestatsiya komissiyasining qarori bilan professorlik unvoni tasdiqlangan.

1935-1941 va 1945-1946 yillarda professor M.Ya.Gromov (1884-1963) Toshkent to’qimachilik va engil sanoat instituti «Chizma geometriya va chizmachilik» kafedrasida mudirlik qilgan. Shu davrlarda u kafedrada ilmiy va metodik ishlarni rivojlantirib, yoyiluvchi chiziqli sirtlar nazariyasi va konform almashtirish usullarini yaratdi va chizma geometriyani egri chiziqlar, sirtlarning hosil bo’lishi va ularning yoyilmalarini yasashga doir yangi nazariy asoslar kiritdi. M.Ya.Gromov 1937 yilda rus tilida «Proektsion chizmachilik» bo’yicha masalalar to’plami kabi o’quv qo’llanmalar yaratdi. M.Ya.Gromov 1941-1945 yillarda Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash injenerlar instituti (hozirgi Irrigatsiya va Melioratsiya instituti) «Chizma geometriya va mashinasozlik chizmachiligi» kafedrasida ham mudir bo’lib ishlab, u shu yillarda O’rta Osiyo politexnika institutiga (hozirgi Toshkent Davlat texnika universiteti) chizma geometriyadan ma’ruzalar o’qigan. Bu davrda u o’zining «Chizma geometriya» darsligining 1 va



2 qismlariga tegishli nazariy va amaliy ma'lumotlarni yaratgan. R.Xorunov tomonidan 1961 yilda o'zbek tilida «Chizma geometriya kursi»dan mexanik mutaxassislar uchun darsligi chop etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Raxmonov I. Chizmalarni chizish va o'qish. T. « O'qituvchi». 1992.
2. Sh.K.Murodov, Chizma geometriya. - T., Iqtisod-moliya, 2008.
3. www.ziyounet.uz



TASVIRIY SAN'AT FANINING BOSHQA FANLAR BILAN UZVIY BOG'LANISHI

Boymurotova Shahlo Egamberdiyevna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar
2-maktab tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, fan, texnologiya, shakl, matematika, ta'lim, mavzu, dars, rang.

Respublikada ta'lim tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarni yaratish va amaliyotda qo'llash olib borilayotgan ishlarga bog'liq. Bu yo'nalish keng qamrovli bo'lib, mazmunan takomillashib bormoqda. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'limning butun jarayonini maqsadga ko'ra individuallashtirishni nazarda tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi negizida o'quvchilarni xalq amaliy san'tiga yo'naltirish, ularning barkamol shaxslar bo'lib etishishi uchun tasviriy san'atni mukammal o'rgatish o'quvchilarda tasavvur olami kengligi, idrok etishi, go'zallikni ko'ra olishi va so'z boyligini oshirish asoslarini chuqur o'rganishlariga e'tiborni kuchaytirish talab etiladi.

Boshlang'ich 1-4 sinf tasviriy san'at metodikalarida mavsumiy illustratsiyalar ko'proq berilishini tavsiya etaman, chunki illustratsiya mavzularida o'quvchi juda qiziqiqish bilan yondashadi. Dars jarayonida o'qituvchi illustratsiyani mahorat bilan tushuntirib o'quvchi tasavvur olamiga namoish etadi va jonlantiradi bu o'z-o'zidan dars boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanadi. Masalan o'qish fani bir nuqtadan ifodali o'qish, ona tili so'zlarning talafuzi va yozilishi, tabiatda ranglar uyg'unligi fasllarda ranglar o'zgarishi, matimatega masal qahramonlarini sanash, shakllardan foydalanib kompozitsiya yaratish. Masalan qish manzaralarini tasvirlashda uchburchak shakllardan foydalanib archa tasvirini chizib olamiz, qorbola tasvirida aylana shakllardan foydalanish mumkin.

Archa va qorbola tasvirlarida biz matematika shakllardan foydalandik. Uchburchakning nechta tomonlari bor?, Aylananing tomonlari bormi? Yoki 2-sinf darslikda “Lola va o'rik guli” mavzusida biz ona tili faniga bog'lab “Bu nima, bu kim” o'yini tashkil qilishimiz mumkin. Masalan lola gul -bu nima?, so'rog'iga javob bo'ladi va kichik harf bilan yoziladi. Lola kishilar ismi – bu kim? sorog'iga javob bo'ladi va katta harf bilan yoziladi. Tabiat faniga bog'lab o'rik daraxtining parvarishi, lola gulining turlari va ular nima uchun qizil kitobga kiritilyapti?. Matematika faniga bog'lab qirda qizil lolalar soni va sariq lolalar soni nechta? O'qish faniga bog'lab bahor faslini tasavvur ko'lamida ifodalab berish tafsiya etiladi. Haykaltaroshlik mavzularida “Sholg'om” ertagi asosida haykalchalar ishlash. Bu mavzu boshqa fanlarni o'z ichida uzviy bog'lab boradi. O'qish fani ertakni ifodali o'qish, Tabiat darsiga bog'lab sholg'om qanday yetishtiriladi?, Odobnoma darsiga bog'lab “Kuch - birlikda” maqoli asosida oquvchilarning do'stona munosabatlarini shakllantirish. Matematika faniga bog'lab ertak qahramonlarini sanash yoki sholg'om qanday shaklda ekanligini topish orqali darsning nazariy qismi o'z maqsadiga erishadi.

Darsning asosiy qismi bu rangtasvirda ishlash bosqichlari bo'lib bu mavzuda ranglar uyg'unligini ko'rsata olish. O'quvchilarni shu yo'sinda kasb tanlashga yo'naltirish bugungi kun talabidir

Ranglarning asosiy xususiyatlarini amaliy jihatdan bilish uchun ularni turli buyumlarda sinab ko'rish kerak (turlicha to'yingan-likdagi mevalar, sabzavotlar, rangli drapirovkalar va hokazolarda).

Ma'lumki, tabiatdagi har bir narsa o'ziga hos murakkab ranglarga ega. Buni chuqur tushunish, ular orasidagi aloqadaorlikni anglash muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan mazkur mavzudagi kishki osmon, yer, daraxt va navdalar, uzoqdagi uylar, o'ynayotgan bolalar tasvirini rangtasvirda ifodalash muayyan mahorat va tajribani talab qiladi. Qishki tabiatning o'ziga xos ko'rinishi, unda o'yin o'ynayotgan bolalar ustki kiyimlarining yorqin ranglari tasvirlanishlariga diqqat qilinadi. Uzoqdagi va yaqindagi narsalar tasvirlarini ishlash malakalari ishga solinadi.

Akvarel texnikasiga rioya qilgan holda, ranglarning haddan ziyod kirlashib ketmasligiga e'tibor qilinadi. Yana bir bor, ko'zdan kechirilib, umumlashtiriladi.

Bir rangga boshqasini qo'shish natijasida bo'yoqlar o'zining to'yinganligi (yorqinligi)ni yo'qotadi. Masalan, ranglarni qo'shish orqali yorqin zarg'aldoq, yashil va siyohrangni hosil qilish ancha murakkab. Shuning uchun ham ayrim hollarda palitrada tayyor holatdagi yorqin zarg'aldoq,



yashil, havorang va siyohrang bo'yoqlarning bo'lishi ortiqchalik qilmaydi.

«Rangtasvir — tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchi va har bir bo'lakni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalashi mumkin» — degan edi K.F.Yuon.

Foydalanigan adabiyotlar

1. Tasviriy san'at asoslari.
2. Maktablarning tasviriy san'at fani darsliklari.



TASVIRIY AMALIY DARSLARDA IJODIY QOBILIYATLARNI O‘STIRISH

Madraximova Vazira Muxtarovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
22-son maktabining Tasviriy san’at va
chizmachilik fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatini o‘stirish va ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar badiiy ijodiy qobiliyat, estetika, etika, badiiy an’ana.

Mustaqillik sharofati bilan yaratilgan “kadrlar tayyorlash milliy dasturining ta’lim sohasini o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish yuksak ma’naviyat va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ular sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishini nazarda tutadi. Oliy o‘quv yurtlarda bo‘lg‘usi tasviriy san’at o‘qituvchisi kasbini egallaydi. Chunki talaba o‘qitish metodlarini bilmasdan turib umumiy o‘rta ta’lim maktablarda darslarni talablar darajasida o‘ta olmaydi. Tasviriy san’at, ya’ni ma’naviyat o‘qituvchisi boshqa fanlar o‘qituvchilari kabi birinchi galda eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, iymon va e’tiqodli, halol va sofdil, talabalarga, o‘smir va yoshlarga nisbatan o‘ta mehribon, o‘ta talabchan va o‘zbek xalqining urf-odatlarini, an’analarini mukammal biladigan va hurmatini joyiga qo‘yadigan bo‘lishi kerak.

O‘qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to‘xtalganda shuni ta’kidlash lozimki, u eng avvalo o‘z kasbining jonkuyari, uni dildan sevadigan, o‘z ishiga ijodiy va ilmiy yondoshadigan shaxs bo‘lmog‘i ta’lab etiladi. Bu shaxsda yangi bilimlar va ilg‘or tajribalariga chanqoqlik, muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, qat’iylilik va insoniylik xususiyatlari yaqqol sezilib tursin. Shuningdek bo‘lg‘usi talabalarning maktablarda olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlari ham buni talab etadi. Maktab o‘qituvchilar shuni yaxshi bilishlari lozimki tasviriy va amaliy san’atini o‘rgatish qatorida:

1. o‘quvchilarning tasviriy malakalarini rivojlantirish;
2. o‘zbek milliy badiiy ananalari bilan tanishish;
3. o‘quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari va badiiy didini u1118 o‘stiradi;

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi kursida amaliy bezak san’atini o‘rganish metodikasi alohida o‘rinni egallaydi. 1-7 sinflar uchun mo‘ljallangan “Tasviriy san’atning dasturida, san’atshunoslik asoslari”, kompozitsiya, bo‘limlari mavjud bo‘lib, ular “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati, o‘zbek milliy liboslari” mavzularida suhbat o‘tkazish, turli buyumlar uchun yo‘lsimon, kvadrat, to‘rtburchak, doira shaklida naqshlar ishlash idish-tovoq, kiyim kechaklar, kitoblarning ichki va tashqi bezagi uchun eskizlar ishlash, adabiy asarlar uchun illyustratsiyalar tayyorlashga doir mavzular berilgan. Eskizlar ishlashga doir topshiriqlarning barchasi yoshlarda ijodiy qobiliyat va fantaziyani o‘stirishga qaratilgan bo‘lib, ularning badiiy fikr doirasini kengshaytirish va badiiy didini o‘stirishga xizmat qiladi. Dars samarali bo‘lishi uchun har bir o‘qituvchi ko‘rsatilgan namunalar bilan chegaralanib qolmasligi lozim, imkoni boricha ularni boyitib borish mashg‘ulotlarning qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Yuqorida aytilgan barcha so‘zlar o‘quvchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Azimov B.B, Azimova M.B “ Rangtasvir” O‘quv qo‘llanma “Durdona nashriyoti” 2019
2. Azimova M.B Nablyudenie natury i postanovki “Molodoy uchyonyy» mejdunarodny nauchny jurnal №11[115] 2016 gg.



ESTETIK TARBIYADA XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATINING O'RNI

Rejapova Dilfuza Rovshonovna

Xiva tumani 24-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 078 93 91

rejapova.dilfuza_24@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola naqqoshlik san'ati, uy-joy va jamoat binolarining devor va shiftlar bezaklari haqida.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, naqqoshlik, amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi, kompozitsiya.

Mamlakatimizda kompetencyaviy yondashuvga asoslangan standartning joriy etilishi umumta'lim maktab o'qituvchilarining oldiga katta vazifalarni qo'ymoqda. Ushbu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchilarni ilmiy, bilimli, ma'lumotlarni tez qabul qila oladigan etibta'rbiyalashimiz zarur. Shuning uchun o'qituvchilar dars jarayonini har xil usulda tashkil etishi kerak. Tasviriy san'at darslarida nazariy ma'lumotlar amaliyot bilan bog'liq holda etkazilishi samarali hisoblanadi. Amaliy san'atning ifodaviy vositalari uning xususiyatlariga qarab turlicha bo'ladi. Amaliy san'atda ritm, simmetriya, shakl va rangdan asosiy tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, naqqoshlikda asosiy vosita sifatida rang muhim rol o'ynasa, yog'och o'ymakorligida yog'och, miskarlikda sariq va qizil mis metall, kulolchilikda loy, kashtachilikda ipak iplar, zardo'zlikda baxmal bilan zar iplardan asosiy tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. Ularning barchasi uchun xos bo'lgan asosiy vosita – bu kompozitsiya. Amaliy bezak san'ati juda qadim zamonlarda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlandi. Amaliy san'at naqqoshlik, ganchkorlik va badiiy bezakning boshqa ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Qadimdan ota-bobolarimiz naqqoshlik san'ati bilan shug'ullanib, shuhrat qozonishgan. O'zbek ustalari faqat uy-ro'zg'or buyumlari bilan cheklanib qolmay, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiftlarini ham mohirona bezab kelganlar. San'atning bu turida har bir xalq o'zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san'atida tekislangan yog'ochga usta o'simlik shaklidagi naqsh rasmini tushiradi, keyin unga maxsus bo'yoqlar beradi. U bir oz quriganidan so'ng bo'yog'i o'chib ketmasligi uchun ustidan bir necha bor tiniq lok surtiladi. O'zbek ustalarining ish uslubi boshqacharoq. Eskiz asosida duradgor tayyorlagan yog'och qutichaga yelim surtiladi. Jilvir qog'oz bilan tozalangan materialga bronza rang beriladi. Bronza ustidan ulgi asosida kompozitsiya tasviri tushiriladi. Uning ustiga qora bo'yoq surtib, naqsh ishlanadi. Naqshlar o'chib ketmasligi uchun bir necha bor toza lok surtiladi. Naqqosh ustalardan A. Qosimjonov, Y. Raufov, T. To'xtaxojayev, A. Boltayev, S. Norqo'ziyev va J. Hakimovlar san'atning bu turida samarali mehnat qilib, shuhrat qozonishgan. Amaliy san'at turlarida simmetriya muhim rol o'ynaydi. Simmetriya deyarli hamma janrlarda ishlatiladi va uni amaliy ko'rish mumkin. Simmetriya so'zi – aynan o'xshashlik (lotin. iden so'zidan olingan bo'lib, o'shaning o'zi, aynan ma'nolarini ifodalaydi) degani. Aynanlik o'zaro bir-biriga to'la muvofiqligini ifodalaydi. Simmetriyaning bir necha turlari mavjud bo'lib, ularning ichida eng soddasi aks simmetriya hisoblanadi. Simmetrik kompozitsiyaning alohida bir ko'rinishi esa naqshlardir.

Tasvirni o'q bo'ylab biroz surilsa, naqshning barcha elementlari bir-birining ustiga tushadi. Amaliy bezak san'atida bunday simmetriyaning ikki turi ko'p tarqalgan. Ular tasmasi, halqali va aylana (masalan, likopcha cheti naqshi) naqshlardir. Naqqoshlikda simmetriyalar ko'p ishlatiladi. Simmetriya – yunoncha so'z bo'lib, «simmetria» – o'lchovdoshlik degan ma'noni bildiradi. Simmetrik – biror narsa, naqshning markaz chizig'i (o'q chiziqqa)ga yoki tekislikka nisbatan aynan muqobil joylashuvi, o'zaro o'xshashlik. Naqqoshlikda simmetriya turlari mavjud. Ko'zguda aks etgan simmetriyani ko'zgusimon simmetriya deyiladi. Ko'zgusimon simmetriya amaliy san'atda muhim o'rin tutadi. Amaliy san'atda bezaklarning ko'pchiligi ko'zgusimon simmetriyaga asosan ishlanadi.

Kompozitsiyadagi takrorlanish ritm naqsh kompozitsiyasidagi bir butunning tarkibiy qismini bir necha marta davriy takrorlanishidir. Ritmning turli-tumanligi har xil sharoitda elementlarning shakli va orasidagi masofaning kattaligiga bog'liq. Davriy takrorlanishning uch ko'rinishi mavjud: oddiy takrorlanish, murakkab takrorlanish, juda murakkablashgan takrorlanish. Oddiy takrorlanish bitta element takrorlanishidan hosil bo'ladi. Murakkab takrorlanish ikkita har xil elementlarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil bo'ladi. Juda murakkablashgan takrorlanish bir necha



elementlarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil bo'ladi.

Demak, umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarida amaliy bezak san'ati bo'yicha DTS va o'quv dasturlarida o'quvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari belgilab berilgan, bular barchasi dars jarayonida o'qituvchining mahorati va kasbiy bilimi ila innovacion texnologiyalar orqali etkazib beriladi. Shuning uchun fan o'qituvchilari o'z ustida tinmay izlanishini, qo'shimcha ma'lumotlar orqali bilimlarini oshirib borishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. Toshkent, 2010
2. Sh.R.Qobilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2014
3. Kuzyev, Tursunali va boshqalar. Tasviriy san'at darsligi 5-sinf. Toshkent, 2015

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 14-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000